



## O'QUVCHILARNING BILIMINI NAZORAT QILISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Achilova Dilnora Solijanovna**

*Nukus davlat pedagogika instituti Texnologik  
ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Резюме:** Berilgan maqolada umumta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitish uslubi ko'rib chiqilgan va darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning ahamiyati ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lim, texnologiya, ta'lim – tarbiya, pedagogika, innovatsiya, yangi pedagogik.

**Резюме:** В данной статье рассматривается методика преподавания технологии в общеобразовательных школах и указывается на важность преподавания уроков на основе инновационных педагогических технологий.

**Ключевые слова:** образование, технологии, воспитание, педагогика, инновации, новая педагогика.

**Summary:** The given article investigates the method of teaching technology in secondary schools and shows the importance of teaching lessons based on innovative pedagogical technologies.

**Key words:** education, technology, education, pedagogy, innovation, new pedagogy.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan davlatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolligini oshiruvchi va ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha katta tajriba to'plangan bo'lib, shu tajriba asosi interaktiv metodlar nomi bilan atalmoqda.

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy fikrlash, javobgarlik bilan qarash, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan maqsadli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga bo'lgan qiziquvchiligini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va informatsion texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Ular xilma xildir. Bu zamonaviy metod, yoki o'qitishning natijaviyligini oshirishga yordam beradigan texnologik treninglar o'quvchilarga mantiqiy, intellektual, ijodiy, shaxsiy fikrlarini shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk kadr bo'lishiga yordam beradi [1].

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol



ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganishi;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi [2].

Innovatsiya (inglizcha - innovation) – yangilik kiritish ma'nosini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatidagi yangilik, o'zgarish kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Bu metodlarning farqi ular faqat o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Shunday metodlardan biri «Kim yuqori» metodi hisoblanadi. Bu metodi umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va oliy ta'lim muassasalarida amaliy darslarda bir bir bobni yoki besh-olti mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng qo'llanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o'qituvchi o'qitayotgan fani bo'yicha besh-olti mavzuni o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning bilimni tekshirish va o'tilgan mavzularni yana bir bor mustahkamlash uchun foydalansa bo'ladi. Bu metodni qo'llash uchun o'tilgan mavzulardan savollar tuziladi va alohida bir varaqqa o'quvchilarning ro'yxati yoziladi. Bu ro'yxat vaqt ketmasligi uchun oldindan tayyorlab qo'yiladi. Har bir o'quvchiga to'rt javobdan yozilgan qog'oz kartochkalar tarqatiladi. Bu to'rt javobning ikkitasi berilgan savollarga to'g'ri keladigan etib, qolgan ikkitasi esa chalg'ituvchi (to'g'ri kelmaydigan) javob deb ko'rsatilsa ham bo'ladi. Bu savol javoblarini faqatgina to'rtta emas, olti yoki undan ham ko'p etib tuzilsa ham bo'ladi.

Savollar haqida o'quvchilarga hech qanday ma'lumot berilmaydi, biroq savollarga tayyorgarlik ko'rish uchun besh-olti mavzu yoki to'liq bir bobni qayta-qayta o'qib tayyorgarlik ko'rib kelish kerakligi uqtiriladi.

O'qituvchi savollarni o'qiydi, o'quvchilar tarqatib berilgan qo'lidagi kartochkalarga qaraydi. Fikrini jamlash uchun 5 sekund vaqt beriladi. Agar berilgan savolning javobi kartochkadagi javobga mos deb bilsa, ya'ni o'qituvchi o'qiyotgan savolning javobi mening kartochkamdagi javob deb bilsa, o'quvchi qo'l ko'tarib o'qituvchiga belgi beradi va o'qituvchi ruxsat bergandan so'ng javobini aytadi. Agar o'qituvchi o'qiyotgan savolning javobini kartochkasida to'g'ri javob yozilgan



o'quvchi ko'l ko'tarib javob bermasa, unga «-» belgisi qo'yiladi, kartochkasida esa to'g'ri javob yo'q biroq, shu savolning javobini bilib turib qo'l ko'tarib javob bersa, u o'quvchiga «+» belgisi qo'yiladi. Agar bir vaqtning o'zida uch talaba qo'l ko'tarsa, o'qituvchining ruxsatidan so'ng har biri kartochkasidagi javobni aytadi. Aytilgan javoblardan faqat bir o'quvchiniki yoki ikki o'quvchiniki to'g'ri ekanligini aytadi. Lekin bu javoblarning nechtasida to'g'ri berilishi o'qituvchining tuzgan savol-javoblarining joylashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda to'g'ri javobni faqatgina bir o'quvchida emas, balki ikki yoki uch o'quvchida ko'rsatsak ham bo'ladi. Agar javob bergan uch o'quvchining ham javobi noto'g'ri bo'lsa, guruhda savolga hech kim javob bermasa to'g'ri javobni o'qituvchi o'zi aytadi.

Barcha savollarni o'qib bo'lgandan so'ng o'quvchilarning to'plagan qancha “-” va “+” belgisini olganliklari hisoblab chiqiladi. Bunda qaysi o'quvchilarning yuqori ball to'plaganliklari aniq bo'ladi. Bu metod bir qancha maktab o'quvchilari va institut talabalarida sinovdan o'tkazildi hamda biz o'ylagandek o'quvchi va talabalar o'tilgan mavzularni qaytalab olishga, tengdoshlaridan epchilroq javob berishga, darsga diqqat bilan munosabatda bo'lishga, bu fanni yanada puxta o'rganish uchun talabchanlikning oshishi kerakligiga ishonch hosil qilindi [3].

Bu metodni faqatgina savol ko'rinishida emas, balki rasm, sxema ko'rinishlarida ham berishga bo'ladi. Buni ko'pincha boshlang'ich sinflardagi texnologiya darslarida qo'llasa ham bo'ladi. Masalan, asbob-uskunalar bilan tanishtirishda ularning olgan bilimlarini tekshirish maqsadida rasm ko'rinishida ham ko'rsatsak bo'ladi. Bu metodik texnologiyaning afzallik tomonlari o'quvchining shu fandan olgan bilimlarini yaxshi yodida saqlashiga, ularni hozir javoblikka, chaqqonlikka hamda ko'proq o'qib, fanga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga va har bir talabani individual baholashda katta ahamiyatga ega. Bu metod orqali o'quvchilarning darsga to'liq diqqatli qatnashishi ta'minlanadi, fan bo'yicha bilimlar mustahkamlanadi. Afzallik taraflari bilan birga kamchiliklari ham bo'ladi. Jumladan, bu metod bilan ishlashda vaqt ko'proq ketishi mumkin. Biroq o'qituvchi har bir savol va javoblar orasidagi vaqtni to'g'ri taqsimlay olsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiya bo'yicha mashg'ulotlarni amalga oshirish – bu dunyo ta'lim standartlari talablariga mos ravishda dars o'tish degani. Shuning uchun ham keyingi yillarda ta'lim tizimida yangi pedagogik mahorat bo'yicha mashg'ulotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Yangi pedagogik texnologiya fan sifatida oliy ta'lim tizimidan chuqur o'rin olmoqda, sababi ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar o'z natijasini ko'rsatmoqda. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan aniq asoslangan bo'lishi lozim. Shunda o'qituvchi bu metod bilan



ishlashda qanday vazifalarni qo'yib yechish imkoniyati ham qanday vazifalarni amaga oshirib bo'lmasligini ko'ra oladi. Metodning ilmiyligi o'quvchilarning aniq fikr yuritishini materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi dalillarning maqsadi, vositalari, usullari, asosiy va ikkinchi darajali natijalarni ham bildiradi. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning natijadorlik darajasini belgilaydi. Ta'lim metodlarining oldiga qo'yiladigan talab – ularning tushunarli bo'lishi hisoblanadi. O'qitish yo'li o'quvchiga tushunarli bo'lishi, o'quv materialini o'rganish usullari esa uning bilimlarini o'zlashtirishdagi yosh o'zgachaliklariga muvofiq kelishi lozim.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi va sodir bo'layotgan ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish texnologiyalar, ta'limni insonparvarlashtirish yuqori intesivlik bilan ajralib turadi [4].

Bunda pedagog va tarbiyachilar oldidagi aktual muammolardan biri yoshlarni shaxsiy fikrlashga, o'zini himoya qilishga, tanqidiy fikrlashga da'vat etadigan fan mavzulari bo'yicha amaliyotga tadbiiq etish hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiyani amalda qo'llashda har bir fanning o'ziga xos taraflarini hisobga olish kerak.

Xulosa qilib aytganda bu pedagogik texnologiyani maqsadli foydalanish o'quvchilarning bilimini adolatli baholashda yaxshi natija beradi. Shuningdek o'quvchilarning o'ylash, fikrlash, esda saqlash qobiliyatlarining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar:

1. N.A.Muslimov, SH.S.SHaripov, O.A.Qo'ysinov. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash». T:-2014.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.
3. U.Sadaddinov, D.Pirnazarova. «Qadagalaw sabaqlarında jaña pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıw». Nukus DPI ilmiy-amaliy konferentsiya. 2-tom 20-21-noyabr T:-2018. B.20-21.
4. Ачилова, Д. С., & Сададдинов, У. У. (2023). ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МОТИВАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ. СИНТЕЗ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ РЕШЕНИЯ, 21.